

**O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida korrupsiyaga qarshi
kurashish tizimining amal qilishi haqida
2025-yil natijalari bo‘yicha
UMUMIY HISOBOT**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qaroriga asosan Iqtisodiyot va moliya vazirligida **Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi** (Bo‘lim) tashkil etilgan.

Bo‘lim o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga, “Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to‘g‘risidagi amunaviy nizom” (r/r 3319, 08.09.2021y.) hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining qarorlari, buyruqlariga amal qiladi.

Bo‘lim o‘z faoliyatini Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 18-dekabrda 23-237-son buyrug‘i bilan “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo‘limi to‘g‘risida vaqtinchalik nizom” asosida amalga oshiradi.

Bo‘lim Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rishga mas’ul hisoblanadi.

Bo‘limning **asosiy vazifalari** quyidagilar hisoblanadi:

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish;
- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta’minlash va nazorat qilish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish.

1. Vazirlik tizimida “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi”ni joriy etilishi.

2024-yilda vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida boshqaruv tizimi va mexanizmlari bo‘yicha (ISO 37001:2019) **milliy** va (ISO 37001:2016) **xalqaro standart** sertifikatlari olingan.

2025-yil yanvar oyida “CERT International” tashkiloti tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi xalqaro standart talablariga muvofiqligi **auditdan** o‘tkazildi.

O‘tkazilgan **audit** natijalariga ko‘ra, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar **ijobiy baholandi** va “ISO 37001:2016” xalqaro sertifikatiga loyiqqligi e‘tirof etildi.

2. Siyosat va tartib taomillar bo‘yicha.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini oshirish va amalga oshirilayotgan ishlarni aniq mezonlar bo‘yicha yo‘lga qo‘yish maqsadida mazkur soha bo‘yicha yo‘nalishlarni belgilab beruvchi **15 ta asosiy ichki idoraviy hujjat** (yo‘riqnoma, uslubiyot, nizom)lar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini qonuniylik, fuqarolar huquq va erkinliklari ustuvorligi, ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish borasida qabul qilingan ichki idoraviy hujjatlari qonunchilik hujjatlariga muvofiqlashtirib borilmoqda.

Shuningdek, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining **“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” elektron platformasida o‘qitishni tashkil etish hamda xodimlar tomonidan xizmat safarlari va rasmiy tadbirlarda olinishi mumkin bo‘lgan sovg‘ani tasarruf etish tartibini belgilash to‘g‘risida**”gi buyrug‘i qabul qilinib, amaliyotga joriy etildi.

3. Xavf-xatarlarni baholash va kamaytirish borasidagi ishlar yuzasidan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish mexanizmlarini takomillashtirish va ushbu sohada jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-240-son qaroriga muvofiq, 2024-yilda vazirlik va hududiy bo‘linmalarga yuklatilgan **893 ta** funksiyalar **“E-anticor.uz”** platformasida korrupsiyaviy xavf darajasi bo‘yicha **baholashdan** o‘tkazilgan, shundan korrupsiyaviy xavf darajasi **7 ta** funksiya “o‘rta” va **886 ta** funksiya “past” darajada baholangan.

2025-yilda “Davlat tashkilotlari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti” (31.08.2022-yilda 3383-raqam bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan)ning 4-bandiga asosan, vazirlik va uning hududiy bo‘linmalarining yuklangan asosiy vazifalarga muvofiq amalga oshiriladigan **893 ta** funksiya **7 ta** funksiya **“E-anticor.uz”** elektron platformasida **qayta baholashdan** o‘tkazildi va xavflarni minimallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilab olindi. **7 ta** “o‘rta” darajadagi funksiyalarni amalga oshiruvchi **16 ta** lavozimlar ro‘yxati shakllantirildi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan **“E-anticor.uz”** elektron platformasi orqali 2025-yil 7-mayda Iqtisodiyot va moliya vazirligi, uning tarkibiy va hududiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tasdiqlandi.

Shuningdek, korrupsiyaviy xavf-xatari **“o‘rta”** darajadagi funksiyalarni minimallashtirish maqsadida ushbu funksiyalarga mas‘ul bo‘lgan lavozimlarda

faoliyat yurituvchi xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaviy holatlarga yo'l qo'ymaslik maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida **maxsus o'qitish** bo'yicha 2025-yil 10-fevralda (28/3-10-son) **DASTUR** qabul qilindi.

Mazkur dasturda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari, huquqiy asoslar va xalqaro standartlar hamda korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha huquqbuzarliklarning ma'muriy va jinoiy javobgarligi kabi mavzular nazarda tutilgan bo'lib, korrupsiyaviy xavf-xatari "**o'rta**" darajadagi funksiyalarga mas'ul bo'lgan **25 nafar** xodimning **jami 14 soatlik o'quv dasturida** ishtiroki ta'minlandi hamda maxsus o'qitish yakunlari bo'yicha yakuniy **test sinovlaridan o'tkazildi**.

Bundan tashqari, korrupsiyaviy xavf darajasi "**o'rta**" deb baholangan **7 ta** funksiyalarni amalga oshiruvchi **16 ta** lavozimlarda faoliyat olib borgan **29 nafar** xodimlarning barchasi "**Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi**" onlayn platformasining **maxsus o'qitish** kurslarida o'qitildi.

Ma'lumot uchun: mazkur lavozimda faoliyat olib borgan 29 nafar xodimdan 3 nafari boshqa to'zilmaga o'tkazilgan va 1 nafari bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan bo'lib, bugungi kunda xavf darajasi "o'rta" deb baholangan lavozimda 25 nafar xodim faoliyat olib bormoqda.

4. Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish yuzasidan.

Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 18-dekabrdagi 23-237-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha nizom"ga muvofiq vazirlikda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan **3 900 nafar** boshqaruv xodimlari tomonidan **ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyalar** to'ldirilib, vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limiga taqdim etildi.

Xodimlar tomonidan taqdim etilgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyalar Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan **tahlil qilindi**.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyalar tahlil natijalari vazirlik **Odob-axloq komissiyasi** tomonidan muhokama qilinib, tegishli chora-tadbirlar belgilab olindi.

"Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonunning 18-moddasiga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalarida faoliyat olib borayotgan xodimlar tomonidan taqdim etilgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi yillik deklaratsiyalar **tahlil natijalari** vazirlikning 2025-yil 26-martdagi 08/21-6542-sonli xati bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga ma'lum qilindi.

Shuningdek, hisobot davrida vazirlik markaziy apparati va hududiy bo'linmalarga ishga qabil qilingan **673 nafar** xodimdan "Ishga qabul qilishdagi deklaratsiyalar" va lavozimi o'zgargan **927 nafar** xodimdan "Lavozimi o'zgarganda to'ldiriladigan deklaratsiyalar" olingan bo'lib, manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlanmagan.

5. Vazirlikda davlat xaridlari jarayonlarida kontragentlarni tekshirish yuzasidan.

Davlat xaridlari jarayonlarida inson omili ishtirokini kamaytirish maqsadida tanlash va tender savdolari majburiy tartibda elektron shaklda o'tkazilmoqda.

Vazirlik tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish maqsadida **2025-yil davomida 327 ta** davlat xaridlari shartnomasi bo'yicha **kontragentlar tekshiruv**i o'tkazildi.

6. Ishga qabul qilishda nomzodlarni tekshirish bo'yicha.

Hisobot davrida vazirlik markaziy apparatiga **80 nafar**, hududiy bo'linmalarga **593 nafar jami 673 nafar** nomzod ishga qabul qilingan bo'lib, vazirlik tizimiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma (133-son buyruq, 11.07.2023-yil) asosida, ularga korrupsiya qarshi kurashish siyosati va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha tushuntirish ishlari olib borilib tanishtirilmoqda va har bir xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomalarida korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha majburiyatlarni qayd etib borilmoqda.

5. Xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish doirasida.

2025-yil 10-fevralda "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizim xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish hamda manfaatlar to'qnashuvi sohasida **umumiy o'qitish dasturi**", "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimi xodimlarini raqobat siyosati sohasida **umumiy o'qitish dasturi**", "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarga moyil bo'lgan lavozimlarda faoliyat yurituvchi xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida **maxsus o'qitish dasturi**", "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini korrupsiyaga qarshi **maxsus o'qitish** bo'yicha 2025-yilga mo'ljallangan dasturlar (28/3-10-son) qabul qilindi.

Mazkur dasturlar asosida vazirlik markaziy apparatining va hududiy bo'linmalarning **jami 814 nafar** xodimi vazirlik huzuridagi Moliya organlari va budget tashkilotlari moliya-hisob bo'linmalari xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash **O'quv markazida** (*Davlat xaridlari jarayonida korrupsiyaga qarshi kurashish (2 soat), Davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish (2 soat) mavzulari*) o'qitildi.

Hisobot davrida vazirlik huzuridagi **O'quv markazida** Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimiga kiruvchi (*hududiy bo'linmalar, G'aznachilik xizmati qo'mitasi, Pensiya jamg'armasi, Bojxona qo'mitasi*) tashkilotlardan **1 457 nafar** xodim, vazirlik tizimi tashkilotlarining davlat xaridlari bo'yicha mas'ul shaxslari hamda ularning xarid komissiyasi a'zolaridan **426 nafar** xodimlar "Davlat xaridlari va boshqa budget moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olish" mavzusidagi o'quv kursi (masofa.tcmf.uz) bo'yicha o'qitildi.

Bundan tashqari, hisobot davrida xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirish yuzasidan **"Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi"** onlayn platformasining maxsus o'qitish kurslarida vazirlik markaziy apparatining **489 nafar** vazirlikning hududiy bosh boshqarmalari va

tuman (shahar) bo'limlarining **2 966 nafar** xodimlari **jami 3 455 nafar** xodim o'qitildi.

Shuningdek, hisobot davrida **yangi ishga qabul qilingan** vazirlik markaziy apparatining **13 nafar**, vazirlikning hududiy bosh boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining **188 nafar jami 201 nafar** xodim **“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi”** onlayn platformasining maxsus o'qitish kurslarida o'qitildi.

2025-yil davomida vazirlik markaziy apparatining **405 nafar** xodim bilan xizmat safarlari va chet elga chiqish jarayonlarida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar (suhbatlar, instruktaj) o'tkazildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbarining 2025-yil 5-avgustdagi topshirig'iga muvofiq Bosh vazir o'rinbosari-iqtisodiyot va moliya vaziri J. Qo'chqorovning 2025-yil 29-avgustdagi “Davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va affilanganlik holatlari” yuzasidan o'tkazilgan yig'ilish bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan **“Davlat xaridlarida va boshqa budjet moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlarining oldini olish va tartibga solish yuzasidan davlat organlari hamda tashkilotlarining xodimlari uchun vebinar o'tkazish reja-jadvali”** tasdiqlandi.

Tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq, 23-sentabrdan 6-noyabrga qadar, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan davlat organlari va tashkilotlari, aksiyadorlik jamiyatlari, davlat unitar korxonalari va boshqa tashkilotlarining buxgalteriya va xo'jalik bo'linmalari hamda xarid jarayonlarini amalga oshiruvchi mas'ul mutaxassislari uchun **“Davlat xaridlarida va boshqa budjet moliyaviy xarajatlarni amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlarining oldini olish va tartibga solish”** mavzusida vebinar tashkil etildi.

Vebinarida Iqtisodiyot va moliya vazirligi Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi, Davlat xaridlari siyosati departamenti, Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasi malakali mutaxassislari hamda O'quv markazi professor o'qituvchilari tomonidan, O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi va “Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida”ga Qonunlarining mazmun-mohiyati, “Davlat xaridlari sohasida korrupsion holatlarning oldini olish va bartaraf etish”, “Davlat xaridlari va savdolarida raqobatga zid harakatlar” mavzularida taqdimotlar o'tkazildi.

Mazkur vebinarida jami **2 661 nafar** davlat organlari va tashkilotlarining mas'ul xodimlari ishtirok etdi. Tadbirlar davomida **davlat xaridlari jarayonida manfaatlar to'qnashuvi va affillanganlik holatlarini** aniqlash, oldini olish hamda bartaraf etish, xarid jarayonlarida **raqobatga zid xatti-harakatlar va uni bartaraf etish choralari**, shuningdek, aholi va davlat xizmatchilari hamda tadbirkorlik subyektlari uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Yaponiyaning Nagoya universiteti bilan hamkorlikda **ishlab chiqilgan** “Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaning oldini olish” bo'yicha **uslubiy qo'llanmalar** yuzasidan batafsil ma'lumotlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Boshqaruv samaradorligi agentligining 2025-yil 29-sentabrdagi xatiga muvofiq jamoatchilik bilan samarali

hamkorlik qilish yuzasidan Iqtisodiyot va moliya vazirligining tegishli chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan.

Mazkur chora-tadbirlar rejasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar mutaxassislarini jalb qilgan holda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning huquqiy oqibatlarini, davlat xizmatchisining odob-axloq qoidalari, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning huquqiy oqibatlarini yoritishga bag'ishlangan hujjatli filmlarni namoyish etish orqali davlat xizmatchisining **korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini shakllantirishga** qaratilgan uchrashuvlarni tashkil etish nazarda tutilgan.

Ushbu vazifalar ijrosi yuzasidan vazirlik tizimidagi tashkilotlar va hududiy bo'linimlarida noyabr-dekabr oylarida huquqiy targ'ibotlar amalga oshirildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi **Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi majlisining 2025-yil 14-noyabrdagi 28-sonli bayonnomasi** va Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2025-yil 29-noyabrdagi 03-07/7968-sonli xatiga asosan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida **"9-dekabr – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash"** kuniga bag'ishlangan Aksilkorrupsiya oyligi doirasida 2025-yil **5-dekabr kuni "Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz"** mavzusida vazirlik markaziy apparati tarkibidagi barcha departament va mustaqil tarkibiy tuzilmalar rahbarlari, vazirlikning Odob-axloq komissiyasi a'zolari hamda vazirlik huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va vazirlik tasarrufidagi tashkilotlarning sohaga **mas'ul xodimlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida tadbir o'tkazildi.**

Ushbu tadbirda vazirlik markaziy apparati xodimlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari, tuman/shahar iqtisodiyot va moliya bo'limlari rahbarlari va xodimlari onlayn tarzda (ZOOM orqali) ishtirok etdi.

Tadbirda vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, xodimlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, shuningdek, "Iqtisodiyot va moliya vazirligi tizimida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha olib borilayotgan tadbirlar", "Raqamlashtirish orqali korrupsiyaga qarshi kurash", "Davlat xaridlari tizimida korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish: "Korrupsiyasiz soha" loyihasi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar", "Ochiqlik indeksi va jamoatchilik ishonchini oshirish: Vazirlik axborot siyosatining yillik natijalari va ustuvor yo'nalishlari", "Korrupsiyaga qarshi kurashishda Odob-axloq komissiyasi roli" mavzulari muhokama qilindi va kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Vazirlik hududiy bosh boshqarmalari va tuman (shahar) iqtisodiyot va moliya bo'limlarida xodimlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, mavzularida **669 ta** davra suhbatlari, o'quv seminarlari va boshqa targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Tashkil etilgan targ'ibot tadbirlariga vazirlik markaziy apparati, hududiy bosh boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlarining **12 929 nafar** xodimi ishtiroki ta'minlandi.

Davra suhbatlari, o'quv seminarlari va boshqa targ'ibot tadbirlari Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti imv.uz orqali yoritib borilgan.

veb-saytga havola:

<https://www.imv.uz/anti-corruption-events/category/markaziy-apparat-3>

7. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni berishga mo'ljallangan aloqa kanallari yuzasidan.

Korrupsiyaviy xatti-harakatlar va huquqbuzarliklar bo'yicha xabarlardan o'z vaqtida xabar topish va ushbu holatlarni barvaqt oldini olish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Hukumat portaliga** gov.uz (<https://gov.uz/oz/imv/sections/view/8772>) hamda vazirlikning imv.uz (<https://www.imv.uz/static/korrupsiya-holatlari-haqida-xabar-berish-kanallari>) rasmiy saytiga korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanallari (Ishonch telefoni – 71 203 31 71, 71 203-50-50 (01117); elektron pochta – (info@imv.uz; telegram bot – ([@IMV_antikorrupsiya_bot](https://t.me/IMV_antikorrupsiya_bot)) joylashtirildi.

Telegram messengerida jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligiga korrupsiyaviy holatlar haqida xabar berishga mo'ljallangan alohida aloqa kanali – [@IMV_antikorrupsiya_bot](https://t.me/IMV_antikorrupsiya_bot) telegram boti ishga tushirildi.

Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ushbu aloqa kanallari orqali vazirlik tizimida sodir etiladigan korrupsiyaviy holatlar va boshqa huquqbuzarliklar haqida xabar berilishi mumkin.

Iqtisodiyot va moliya vazirligiga **2025-yil davomida 4 493 ta murojaatlar kelib tushgan**, shundan shaxsiy va sayyor qabullar (og'zaki murojaatlar) orqali 275 tani, yozma murojaatlar 713 tani, elektron murojaatlar 3 505 tani tashkil etgan.

Murojaatlarning 3 606 tasi jismoniy shaxslardan, 887 tasi yuridik shaxslardan kelib tushgan bo'lib, belgilangan muddatda va sifatli ko'rib chiqilishi nazoratga olingan.

Shundan, kelib tushgan murojaatlarning 2 921 tasi qanoatlantirilgan, 853 tasiga tushuntirishlar berilgan, 67 tasi rad etilgan va 117 tasi ko'rib chiqish jarayonida. Takroriy murojaatlar 7 tani tashkil etgan.

Ko'rib chiqilishi yuzasidan 2 722 ta murojaat vazirlik markaziy apparatida, 1 119 ta murojaatlar hududiy boshqarmalarda hamda 535 ta murojaatlar tegishli vazirlik va idoralarga yuborilgan.

Murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida kamchiliklarga yo'l qo'ygan mas'ul xodimlarga nisbatan 2 ta holatda "hayfsan" intizomiy chorasi qo'llanilgan.

Hisobot davrida 1 ta holatda korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushgan.

Korrupsiyaviy faktlariga doir murojaat yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvi hujjatlari huquqiy baho berish uchun 2025-yil 18-avgust sanasida

08/21-40/1677-XDFU son xat bilan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasiga yuborildi.

8. Monitoring va nazorat yo'nalishida.

Tasdiqlangan grafik asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorati bo'limi tomonidan vazirlik hududiy bo'linmalari va tasarrufiy tashkilotlarida **30 ta monitoring o'rganishlari o'tkazildi.**

O'rganishlar davomida tizim tashkilotlariga manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaga qarshi kurashish borasida ishlarni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'mak ko'rsatish bilan birgalikda, faoliyati davomida **jiddiy xato va kamchiliklarga yo'l qo'ygan** mas'ul xodimlarga nisbatan **intizomiy jazo choralari ko'rildi.**

Shuningdek, aniqlangan **kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tashkilot rahbarlariga ko'rsatma xatlari yuborildi.**

9. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari.

Bo'lim tomonidan 2025-yilning davomida **5 ta xizmat tekshiruvi o'tkazilib,** xizmat tekshiruvi va o'rganishlar yakuni bilan tuzilgan dalolatnoma (ma'lumotnoma) va unga ilova qilingan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi.

Bundan tashqari, hududiy bosh boshqarmalar tomonidan hisobot davrida Qoraqalpog'iston Respublikasida **1 ta,** Andijon viloyatida **4 ta,** Jizzax viloyatida **7 ta,** Navoiy viloyatida **2 ta,** Qashqadaryo viloyatida **3 ta** va Samarqand viloyatida **2 ta,** **jami 19 ta** xizmat tekshiruvlari o'tkazilgan bo'lib, xizmat tekshiruvi va o'rganishlar yakuni bilan tuzilgan dalolatnoma (ma'lumotnoma) va unga ilova qilingan hujjatlar huquqiy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborilgan.

9. Xulosa.

Vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining umumiy holati, mazkur soha bo'yicha asosiy yo'nalishlar yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshirilishi yo'lga qo'yilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens nazorat bo'limi tomonidan sohaga taalluqli barcha jarayonlar bevosita nazoratga olingan. Tarkibiy tuzilmalarning mazkur sohadagi faoliyati yuzasidan muntazam ravishda yo'riqnomalar, maslahatlar va amaliy yordamlar berib kelindi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81 qaroriga muvofiq, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining amal qilishi haqida **29 ta indikator** ko'rsatkichlari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan umumiy hisobotlar **"E-anticor.uz"** platformasiga joylashtirib borildi.

10. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha kelgusidagi tadbirlar rejasi.

Iqtisodiyot va moliya vazirligida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kompleks va tizimli chora-tadbirlar "Korrupsiyaga qarshi kurashish" hamda "Manfaatlar to'qnashuvi" to'g'risidagi Qonunlar, ushbu sohaga oid Davlat dasturlari

va boshqa dasturlarning samarali ijro etilishini ta'minlash, korrupsiyaning holati hamda tendensiyalaridan kelib chiqqan holda bajarilmoqda.

2026-yilda belgilab olingan reja topshiriqlarni bajarish maqsadida asosiy e'tibor korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining **asosiy yo'nalishlariga** qaratiladi, xususan:

– O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-dekabrda "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-270-son Farmonida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash;

– vazirlikda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida boshqaruv tizimi va mexanizmlari bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini 2026-2028-yillar uchun qayta joriy etish.

– vazirlik tizimidagi barcha darajadagi xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ularda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish;

– vazirlik va uning tarkibidagi tuzilmalar faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish;

– amalga oshirilayotgan islohotlardan kelib chiqib, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonuniy asoslarini yanada takomillashtirish ishlari doirasida barcha ichki idoraviy hujjatlarni amaldagi qonunchilik va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirib borish;

– jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni qonuniy ko'rib chiqib, ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rish.

**Korrupsiyaga qarshi kurashish
va komplayens nazorati bo'limi boshlig'i**

**O. Samadov
05.01.2026-y.**